

PAST O‘ZLASHTIRUVCHI O‘QUVCHILAR BILAN KORREKSION MASHG‘ULOTLAR OLIB BORISH MASALALARI

Xo‘jayarova Nafisa Normaxamadovna

*Surxondaryo viloyati Uzun tumani 20-sonli umumiy
o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlash usullari o‘quvchilarning faolligini oshirish ularning o‘z tengdoshlari qatoriga yetib olishni ta’minlash haqida.

Kalit so‘zlar: past o‘zlashtiruvchi, mustaqil ish, dars pedagog, sifatli, zamonaviy texnologiya, vazifa, fan, ta’lim, tarbiya, ziyrak,

KIRISH

Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatish yaxshi samara beradi. Mustaqil faoliyat insonni ziyrak va hozirjavob qiladi. Bu faoliyat kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida ta’limga uyg‘un holda rivojlanishi kerak. Buning uchun, avvalo, o‘quvchilarni mustaqil faoliyatga ruhan tayyorlash, ularda biror ishni qila olishga va shu ishni sifatli bajarishiga ishonch uyg‘otish lozim. Mustaqil ish turlari, avvalo, o‘qituvchi tomonidan puxta o‘ylangan, ta’lim maqsadiga yo‘naltirilgan va davomiy bo‘lishi kerak. Bunda har bir o‘quvchining imkoniyati hisobga olinishi, yosh xususiyati, qiziqishlari ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. O‘qituvchi tomonidan puxta o‘ylangan ta’lim maqsadiga yo‘naltirilgan va davomiy bo‘lishi kerak bunday har bir o‘quvchining imkoniyati hisobga olinishi yosh xususiyati qiziqishlari ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak o‘quvchilarni aqliy rivojlantirish shartlaridan biri topshiriqlarni to‘la eslab qolib bajarishdir bunda bajariladigan ishning maqsadini tushungan tasavvur qilgan holda uning rejasini belgilash va ish usulini tanlash yo‘l qo‘yilgan xatolarni mustaqil topa olish va uning tuzata bilishlariga alohida e’tibor beriladi.

Dars sifatini oshirish maqsadida boshqa tumandagi olis maktabga borib, dars beradigan yosh o‘qituvchilar oyligiga ustama haq to‘lash tizimi joriy etildi. Bundan tashqari, yoshlarning chuqur bilim olishini ta’minlash maqsadida o‘tgan yillarda 98 ta ixtisoslashgan maktab tashkil etildi. Har bir hududda Prezident maktablarining tashkil etilishi ham iqtidorli va barkamol yoshlarni tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Yangi

O‘zbekiston yoshlari tashabbuslari” jamg‘armasi va elektron platformasi tashkil qilinishi belgilandi. Jamg‘armaga 100 million dollar yo‘naltirilib, bu mablag‘lar iqtidorli yoshlarning eng yaxshi g‘oya, startap va loyihalariga qulay va yengil shartlarda, zarur bo‘lsa foizsiz ajratiladi. Past o‘zlashtirayotgan o‘quvchilar uchun shunga o‘xshash ko‘plab imkoniyatlar yaratildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Rizayeva Maftunaxon Abdumannop qizi o'zining " Past o'zlashtirayotga o'quvchilar bilan ishlash" nomli maqolasida quyidagilarni keltirgan: — Bosh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish yaxshi samara beradi mustaqil faoliyat insonni ziyrak va hozir javob qiladi bu faoliyat kichik yoshdagi maktab o'quvchilarda ta'limga uyqun holda rivojlanishi kerak buning uchun avvalo o'quvchilari mustaqil faoliyatga ruhan tayyorlash ular da biror ishni qila olishga va shu ishni sifatli bajarishga ishonch uyg'otish lozim. Intizor Jumanioyozova o'zining maqolasida : — O'quvchilarda mustaqil ishlarni sifatli bajarishda qiyinchiliklar paydo bo'lishi tabiiy. Chunki hali ularning tasavvuri yorqin, so'z boyligi yetarli emas. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bolalar o'qituchi rahbarligida ishlaganda, tezroq mulohaza qiladilar. Bu holga o'rganib qolmasliklari uchun ko'proq ularning o'zini mustaqil fikrlashga da'vat etish lozim. O'quvchilar e'tiborini jalb etish maqsadida matndagi voqealarni eslatib: Nega shunday bo'ldi? Seningcha qanday bo'lishi kerak edi? kabi savollar berib, uning fikrini ma'qullab, "yana o'ylasang topasan", "juda yaxshi", "juda soz!" kabi rag'batlantiruvchi so'zlarni ishlatish foydalidir.

Orazbayeva Gulparshin o'zining "Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash" nomli maqolasida keltirgan: —O'quvchilar bilim sifatini oshirishhamda ularning tartib intizomini mustahkamlash. Darsdan va sinfdan tashqaritarbiyaviy ishlarni tashkil etish va ularni otkazish. Oquvchilarning ota - onalaribilan olib boriladigan ishlar ham sinf rahbarining asosiy vazifalaridan biridir.Oquvchilar jamoasi - sinf rahbarining tayanchi. Oquvchilarni tarbiyalashda sinfjamoasidagi barcha oquvchilarning bir-birlariga ta'sirlari katta ahamiyatga ega.Dastlabki bajargan mustaqil ishdan bola mamnun bo'lsa, uning qiziqishlari ortib,yangi-yangi ish turlarini amalga oshirishga kirishadi. Mustaqil ish natijalarinihamisha tekkrishish lozim. Tekshirish og'zaki yoki yozma shaklda bo'lishi mumkin.Bola yozishidan oldin o'ylaydi, fikrini og'zaki jamlaydi, so'ng uni yozishgakirishadi. O'z fikrini bayon qilish, yo'l qo'yilgan biror savol yoki masalayuzasidan mushohada yuritishga urinadi. Bu jarayon (og'zaki) nutq asosida paydobo'ladi va mustahkamlanadi.

Muhokama

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinfdan yuqori sinfga qabul qilingan o'quvchiga dars beradigan o'qituvchilarga juda katta ma'suliyat yuklangan bo'ladi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari bir o'qituvchining qo'lida ta'lim-tarbiya olgan bo'ladi. 5-sinfda esa ularga turli fan o'qituvchilari dars beradi. Shuningdek, o'tilayotgan mavzular ham murakkablasha boradi. Shu sababli ham 5-sinfga qabul qilingan o'quvchilarning ayrimlarida dastavval bilimida biroz bo'shliqlar paydo bo'lishi mumkin. Fan o'qituvchilari bir-ikki dars jarayonining o'zidayoq bo'sh o'zlashtiruvchilarni aniqlab, chora-tadbirlar belgilashlari kerak. Buning uchun esa barcha fan o'qituvchilari doimiy xamkorlikda va uzviy bog'lanishda ishlashlari darkor.

Shundagina ta'limda ham, tarbiyada ham sifat o'zgarishlari yuz berishi kutiladi. O'qituvchi, eng avvalo, dars boshqaruvchisi. O'quvchining darsdan qandaydir yangilik olishi aynan uning bilimi, saviyasi va mahoratiga bog'liq. Ammo, har bir bolaning o'z iqtidori, dunyoqarashi, qiziqishi mavjud. Har bir sinfda, xoxlaymizmiyo'qmi, o'quvchilar bir xil emas. Kimdir ona tili va adabiyotga qiziqsa, kimdir matematika, kimyo yoki horijiy tillarga ishtiyoqmand bo'lishi tabiiy. Shuningdek, ularning fanlarni o'zlashtirishi ham har xil bo'ladi. Birovi qaysidir fanni yaxshi, birovi o'rta va yaa boshqasi esa sekin o'zlashtiradi. Shu nuqtai nazardan yondashilsa, menimcha, bugungi kun o'quvchilarini uch toifaga ajratish mumkin. Birinchi toifadagi o'quvchilar tabiatan tirishqoq va ijodkor bo'lib, ular o'quv jarayonidan ma'naviy quvvat oladi. Mustaqil ishlashga intilib, turli tadbirlarda ishtirok etadi. Maktabning faxri xisoblangan bu o'quvchilar ko'proq oz o'rinlarini fan sohasidan topadilar.

Ikkinchi guruh ko'pchilikni (taxminan 45-50 foiz) tashkil qiluvchi iqtidorli o'quvchilar bo'lib, ularning o'qishga bo'lgan ishtiyoqi birinchi guruh o'quvchilariga nisbatan pastroq bo'lsada, mustaqil o'rganishga bo'lgan qobiliyati ustun, o'z ustida ishlay oladi, kamtarin, odobli, xulqi va intizomi yaxshi, jamoat ishlarida qatnashadi.

Uchinchi toifadagilar ozchilikni tashkil etadi: Tashkil qiladigan beozor o'quvchilardir.

Natija

O'quvchilarni mustaqil faoliyatga o'rgatishda quyidagilarga amal qilish lozim:– beriladigan har bir topshiriq o'quvchi imkoniyatlariga mos bo'lsin va qiziqish uyg'ota olsin;– ish osondan qiyinga, soddadan murakkabga qarab yo'naltirilsin, o'quvchigatushunarli bo'lsin;– ishni bajarishda bolalarda o'ziga ishonch hissi uyg'onsin, ishga kirishishda ular o'zlarida dadillik topshiriqlar turini almashtirishga alohida ahamiyat berish kerak;– topshiriqlarni hamma bir vaqtda boshlab, ma'lum vaqtda tugatishi kerakligini eslatib, bo'sh o'zlashtiruvchi bolalarni shu talabni bajarishga ko'niktirish lozim;– ish joyi hamisha qulay, saranjom-sarishta bo'lishi (parta ustida ortiqcha narsalar bo'lmasligi) kerak;– topshiriqlar darsning turli bosqichida bajarilishi mumkin;– darslik, didaktik materiallar bilan ishlashda uzviylik bo'lishi maqsadga muvofiq. Uyga beriladigan vazifalar ham mustaqil ishning bir turidir. Bolalarga, ilojiboricha, sinf sharoitida asosiy bilim va malakalarni singdirish, uyga vazifalar berishda me'yorga amal qilish kerak. Bolalar darsdan (og'ir, mashaqqatli mehnatdan) keyin tinilib dam olsalar, ko'proq ochiq havoda bo'lib, harakatli o'yinlar, sayr bilan vaqt o'tkazib, tunda osuda uxlab, ertangi kungi darslargayaxshi kayfiyat bilan kelsalar, darsni o'zlashtirish yaxshi bo'ladi. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni bilimli, salohiyatli qilib tarbiyalashda turli xil metodlardan foydalanib bilimlarini oshirish ularni barkamol inson qilib tarbiyalash bugungi kunda zarur bo'lib kelmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytsak past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash jarayonini tashkil etishda zamonaviy ta'lim-tarbiyada texnologiyadan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi shunday ekan yangi metodlar dan foydalanish bilan bir qatorda ta'lim texnologiyalarni ham bu jarayon bilan uzviy ravishda bog'lab berishimiz kerak. Bundan tashqari o'qituvchining pedagogik mahorati zamonaviy dars o'tish usullardan foydalanishi bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi bilan yakka tartibda ish olib borish natijasida uni samarasi amalga oshishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" //Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: "Sharq" nashriyot matbaa-konserni. 1997yil.
2. Mavlonova R., Vohidova N., Rahmonqulova I., Pedagogika nazariyasi va tarixi (darslik) –T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti 2010-yil.
3. Qiyomiddin Nazirov (tuzuvchi). Falsafa qomusiy lug'at. –T: "Sharq" nashriyoti. 2004-yil
4. Kasb-hunar ta'limi" jurnali 2007-yil.
5. Yo'ldoshev J. Yo'ldosheva F. Yo'ldosheva G. Interfaol ta'lim sifat kafolati. –T.: 2008 y.